KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 246 (1307), 2024-yil 4-dekabr, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

HUDUDLAR IQTISODIYOTIGA E’TIBOR YANGI IMKONIYATLARGA ZAMIN YARATADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 3-dekabr kuni Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Hududlar iqtisodiyotiga e’tibor natijasida Farg‘onada ham imkoniyatlar yuzaga chiqmoqda. So‘nggi 7 yilda sanoat korxonalari qariyb 3 barobar ko‘payib, 13 mingtaga yetgan. Investitsiya loyihalari natijasida 116 mingta ish o‘rni yaratilgan.

Davlatimiz rahbarining shu yil iyul oyidagi tashrifi iqtisodiyot rivojiga yangi sur’at bag‘ishladi. Bu yil 10 oyda xorijiy investitsiyalar hajmi 1,5 milliard dollarni, eksport ko‘rsatkichi 910 million dollarni tashkil qildi.

Endi buni kelgusi yilda ham davom ettirib, investitsiya, ish o‘rni va eksportni ko‘paytirish zarur. Yig‘ilishda Prezident bu boradagi imkoniyatlardan ayrimlarini ko‘rsatib o‘tdi.

Yaqinda “Qo‘qon” erkin iqtisodiy zonasi Quvasoy shahri hisobidan 210 gektarga kengaytirildi. Bu hududda umumiy qiymati 1 milliard dollarlik 185 ta loyihani joylashtirib, qariyb 12 mingta ish o‘rni yaratish mumkin. Shuningdek, Qo‘qonda 71 gektarda texnopark tashkil etilishi birinchi bosqichda 900 million dollarlik, 5 ming ish o‘rniga mo‘ljallangan korxonalarga yo‘l ochadi.

Xitoylik ishbilarmonlar bilan 1 milliard dollarlik, Janubiy Koreya bilan 240 million dollarlik investitsiyaviy kelishuvlarga erishilgan. Ularni amalga oshirish uchun viloyat tuman va shaharlarida 1 ming 210 gektarda sanoat zonalari tashkil qilishga zarurat bor. Bo‘lajak korxonalarda 30 ming kishi, jumladan, kambag‘al oila vakillari ish bilan ta’minlanadi.

Beshariq tumanida savdo-logistika markazi qurilishi boshlangan. U xuddi Termizdagidek erkin savdo zonasiga aylantirilib, do‘konlar tadbirkorlarga ijaraga beriladi. Buning samarasida viloyat eksporti qo‘shimcha 50 million dollarga, ish o‘rinlari esa 2 mingga ko‘payadi. Shunday majmuani Quvasoy shahrida ham barpo etish mumkin.

Qishloq xo‘jaligida ham katta imkoniyatlar bor. Farg‘onada aholi ixtiyorida, yo‘l va dala chetlarida, suv va o‘rmon fondida jami 91 ming gektar yer mavjud. Ulardan unumli foydalanib, mahsulotlarni hamda qayta ishlashni ko‘paytirish zarur.

Masalan, Farg‘ona tumanidagi 15 ta mahallada yiliga 6 ming tonna malina yetishtiriladi. Ularga yaqin hududdan yer berilsa, tadbirkor malinani saqlash, qayta ishlash va qadoqlashni yo‘lga qo‘yib, qo‘shilgan qiymatni 2,5 karra oshirish taklifini bildirgan. Boshqa bir tashabbuskor So‘xdagi o‘rmon yerini ijaraga olib, 800 gektarda kavrak, 50 gektarda za’faron yetishtirmoqchi.

Oltiariqdagi ikkita nasos stansiyasiga 9 kilometr quvur tortib, quvvatini oshirish orqali 1 ming 400 gektarda intensiv bog‘ qilsa bo‘ladi. Unda qo‘shimcha 55 ming tonna eksportbop meva yetishtiriladi.

Yig‘ilishda Farg‘ona viloyati hokimi shu kabi imkoniyatlarni ishga solish bo‘yicha rejalarini taqdimot qildi. Xususan, kelgusi yilda 3,7 milliard dollar investitsiya olib kelish, eksportni 1,5 milliard dollarga yetkazish mo‘ljallangan. 500 ming fuqaroning bandligini ta’minlash, 22 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish vazifa qilib olingan.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni takomillashtirib, viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish bo‘yicha qaror tayyorlashga ko‘rsatma berdi. Eksportchilarga barcha qulayliklarni yaratish, bandlikka ko‘maklashib, ishsizlikni kamaytirish zarurligi ta’kidlandi. Hokimlar va boshqa mutasaddilarning bu boradagi mas’uliyatini oshirish shartligi belgilandi.

O‘zA

8-DEKABR — O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI



Hakim YO‘LDOSHEV olgan suratlar.

O‘ZBEKISTON – DEMOKRATIK DAVLAT

Konstitutsiyamizda belgilangan besh asosiy tamoyil – SUVEREN, DEMOKRATIK, HUQUQIY, IJTIMOIY va DUNYOVIY davlat maqsadlarining ikkinchi tahlili



O‘z oldiga buyuk va ezgu maqsadlarni qo‘ygan yangi O‘zbekiston yorug‘ istiqbol sari jadal ildamlamoqda. Bugun har qadamimiz yangilanish va o‘zgarishlarga hamohang. Islohotlar kirib bormagan mahalla yoki ovul, hayotida yangilanishlarni sezmagan yoxud his qilmagan yurtdoshimiz qolmadi hisob. Qisqa aytsak, islohotlar avj pallasida yashayapmiz.

13-MODDA.

O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi





Prezidentimiz lavozimiga kirishgan dastlabki davrdanoq inson manfaatlari, xalq roziligiga ustuvor ahamiyat qaratdi. Vatan sha’ni va obro‘si, millat kelajagi uchun xayrli tashabbuslarga bosh-qosh bo‘ldi. Natijada yurtimiz tarixan juda qisqa fursatda olamshumul yangilanishlarga erishdi, davlat odamlar muammolariga, orzulariga quloq tutdi.

Xalq hayotini ichdan biladigan yagona tizim mahalladir. Bu tizimga e’tibor qaratish orqali aholi farovonligini ta’minlash maqsad qilindi. Bugun odamlarni qiynayotgan muammolarni mahallaning o‘zi yechadigan xalqchil tizim yaratildi. Bu, avvalo, yuqori tashkilotlarning xalqqa yaqinlashuvida aks etdi. Natijada amaldorlar va oddiy xalq orasidagi devor olib tashlandi. Odamlarda davlatga ishonch hissi paydo bo‘ldi. So‘z erkinligiga keng yo‘l berildi.

Yana bir jihat: qabul qilinadigan qonunlarimizda, davlat darajasidagi muhim hujjatlarda xalq fikri inobatga olinishi belgilandi. Shu nuqtayi nazardan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya xalqimiz roziligi, ishonchi, orzu-istak va talablarining yorqin ifodasi, deya olamiz. Bosh qonunimiz tom ma’noda xalq Konstitutsiyasi bo‘ldi.

Aholi turmush darajasini ko‘tarish kafolatlari Konstitutsiyaning yangi tahririda yanada kuchaytirildi. Bundan tashqari, Konstitutsiyamizdagi o‘zgarishlar qator siyosiy islohotlarni nazarda tutadi. Parlament faoliyati tubdan o‘zgartirilgani buning yorqin misolidir. Qonunlar sifati va ta’sirchanligini oshirishga, ularning ijrosini samarali tashkil etishga e’tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari 2023-yil 8-mayda Oliy Majlis palatalari a’zolari, siyosiy partiyalar va jamoatchilik vakillari bilan umumxalq referendumi yakunlari bo‘yicha o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqida Senatning faoliyati hududlar bilan bog‘liq masalalarni hal etish, mahalliy kengashlarga har tomonlama ko‘maklashish, joylarda, ayniqsa, mahallalarda qonunlar ijrosini ta’minlashga yo‘naltirilishi zarurligini qayd etdi.

Bundan kelib chiqadiki, endi deputat va senatorlar pastga tushib, ko‘proq odamlarning dardiga quloq tutadi, muammolarini eshitadi, aniq yechimlar beradi. Natijada xalq roziligiga erishiladi. Aslida, xalqimiz orzu qilgan yangi O‘zbekiston, yangi hayot mana shudir.

TAHRIRIYAT

KONSTITUTSIYA –

XALQCHIL DEMOKRATIK ISLOHOTLARNING BOSH HUQUQIY ASOSI

Ayni kunlarda Prezidentimizning shu yil 17-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishiga muvofiq, mamlakatimiz bo‘ylab Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 32 yilligi keng nishonlanmoqda. Bu yilgi bayram tadbirlari mamlakatimizda amalga oshirilgan tarixiy islohotlar, 8 yillik juda qisqa davrda erishilgan ulkan natijalar, ortga qaytmas yangilanishlarning bugungi shiddatli bosqichiga hamohang o‘tayotganida ham o‘ziga xos ma’no mujassam. Zero, asosiy qonunimiz milliy davlatchiligimiz, suverenitetimiz, erishilgan barcha yutuq va marralar, ertangi kunimiz, demokratik huquqiy davlat barpo etish yo‘lidagi sa’y-harakatlarning mustahkam poydevoridir.

Shu bois, Konstitutsiyaning mamlakatimiz taraqqiyotidagi beqiyos ahamiyatini yuksak qadrlaymiz. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi ijtimoiy davlat qurish ekani belgilab berildi. Ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Bugun yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi barcha islohotlarda qonun ustuvorligini ta’minlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, bu sana ijtimoiy-siyosiy hayotimizda, mamlakatimiz rivojida alohida ma’no-mazmunga ega. Bu, eng avvalo, 2023-yil 30-aprelda milliy tariximizda birinchi marta umumxalq referendumi asosida Konstitutsiyamiz yangi tahrirda qabul qilingani bilan bog‘liq, desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Hech shubhasiz, xalqchil asosiy qonunimiz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar ortga qaytmasligi, qonunlar ustuvorligining mustahkam huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Davomi 3-betda



O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan — Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati — besh yil.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 91-moddasi.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Keyingi yillarda O‘zbekiston demokratik yangilanishlar, jadal rivojlanish va keng ko‘lamli islohotlar mamlakatiga aylanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida jamiyatimizning barcha sohalarida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

8-DEKABR — O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

YANGI DAVRDA PARLAMENT CHINAKAM XALQ UYIGA AYLANISHI KERAK

Insonning fundamental huquqlaridan yana biri sha’n va qadr-qimmat himoyasiga bo‘lgan huquqidir. Sha’n insonning boshqa odamlar oldida ma’naviy obro‘si bo‘lsa, inson qadr-qimmati shaxsning jamiyat a’zosi sifatidagi mavqeini anglashdir. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro hujjatlarda inson sha’ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, uning or-nomusi, shaxsiy hayotiga taalluqli ma’lumotlar oshkor bo‘lishiga olib keladigan, hayoti va sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘yadigan, chora-tadbirlarni amalga oshirish majburiyatini bo‘yniga oldi. Bugun Bosh qonunimizda o‘z aksini topgan normalar bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. 2025-yil yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinganini yurtimizda ona tabiatni asrab-avaylab, ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilayotgan yuksak e’tiborning amaldagi yana bir ifodasi, desak ayni haqiqatdir.

Konstitutsiyaviy islohotlar natijasi o‘laroq, parlamentning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni ham yanada oshdi. Eng avvalo, yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan Oliy Majlis palatalarining vakolatlari bir necha barobar ortdi. Xususan, Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqish va ma’qullash Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatiga o‘tkazildi. Uning nomzodini taqdim qilishdan oldin esa Prezident tomonidan barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o‘tkazish tartibi joriy etildi.

Shuningdek, Prezidentning ayrim vakolatlari parlamentga o‘tkazildi. Masalan, monopoliyaga qarshi organ va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rahbarlarini Senat tomonidan saylash belgilandi. Sudyalar oliy kengashining barcha a’zolarini Senat tomonidan saylash tizimi kiritildi.

Yangilangan Konstitutsiya bilan parlamentning qonun ijodkorligi faoliyati ham sezilarli darajada takomillashdi. Endi nafaqat u yoki bu qonunchilik tashabbusi subyekti, balki 100 mingdan kam bo‘lmagan oddiy fuqarolar ham o‘zining qonunchilik taklifini parlamentga kiritishi mumkin. Bosh qonunimizga bunday qoidaning kiritilishi davlat ishlarini boshqarishda fuqarolarning ishtirokini yanada kengaytiradi.

Bundan tashqari, qonun Senat tomonidan oltmish kun ichida ko‘rib chiqilishi belgilandi. Agar ushbu muddat ichida Senat tegishli qarorni qabul qilmasa, Qonunchilik palatasi tomonidan qonun imzolanishi va e’lon qilinishi uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri Prezidentga yuborilishi mumkin. Qolaversa, parlament nazoratining muhim shakli bo‘lgan parlament tekshiruvi instituti ham Konstitutsiyada alohida mustahkamlab qo‘yildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada hukumat a’zolari Qonunchilik palatasiga hisobot berishi ko‘rsatilib, uning yakuni bo‘yicha hatto u yoki bu hukumat a’zosini iste’foga chiqarish to‘g‘risida davlat rahbariga taklif kiritish huquqi berildi. Albatta, bunday yirik islohotlar deputatlarning saylovchilar oldidagi mas’uliyatini oshiradi. Chunki bugun fuqarolarimizda davlat va jamiyat boshqaruvidagi daxldorlik hissi kundan kunga oshib boryapti.

Mana shularning barchasi “xalq vakili degan nomga loyiq bo‘lgan” deputatlik korpusini shakllantirishda muhim omil bo‘ldi. Mamlakatimizda joriy yilda parlament va mahalliy kengashlarga bo‘lib o‘tgan aralash tizimdagi saylovda xalqimiz faqatgina shaxsga qarab emas, balki u yoki bu g‘oyaga qarab ham o‘z tanlovini amalga oshirdi. Bunda saylovchilarimiz parlament quyi palatasi a’zolarining yarmini majoritar, qolgan yarmini esa proporsional saylov tizimi asosida shakllantirdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining joriy yil 18-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan birinchi majlisida Prezidentimiz bu yilgi parlament saylovining eng muhim jihatlari haqida to‘xtalib, avvalo, ular yangilangan Konstitutsiyamizga muvofiq o‘tkazilgan ilk saylov sifatida tarixga kirganini alohida qayd etdi.

Majlisda parlamentarizm rivoji yo‘lida amalga oshirilgan ishlar tahlil etildi va oldimizda turgan muhim vazifalar belgilab berildi. Jumladan, yangi davrda parlament chinakam xalq uyi, uning quyi palatasi esa g‘oyalar generatoriga, sog‘lom raqobat, bahs va munozaralar maydoniga aylanishi kerakligi ta’kidlandi.

Shu bilan birga, parlament faoliyatini yanada rivojlantirish, yurtimizda aholi farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan dastur va loyihalarni qabul qilishdan tortib, ijrosi to‘liq ta’minlanishigacha bo‘lgan jarayonda deputatlarning ishtirokini kengaytirish borasidagi vazifalar belgilandi. Parlament nazoratini to‘laqonli ta’sirchan institutga aylantirish, to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlaydigan va aniq ijro mexanizmlariga ega qonunlarni ishlab chiqish lozimligiga urg‘u berildi.

Albatta, bunday muhim vazifalarni amalga oshirish xalq vakillaridan yanada faol va tashabbuskor bo‘lishni talab etadi. Bu borada ko‘zlangan natijalarga erishish, qolaversa, saylovchilarimizning bizga bildirgan ishonchini oqlash uchun bor salohiyatini ishga solgan holda faoliyat yuritish har bir deputat zimmasidagi muhim vazifa bo‘lib qoladi.



Ushbu jarayonda milliy parlamentarizmni rivojlantirishning huquqiy asoslari ham mustahkamlandi. O‘tgan qisqa davrda parlamentning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni va ahamiyati tubdan o‘zgardi. Avvalo, parlament faoliyatida ochiqlik va shaffoflik bosh mezonga aylandi. Jumladan, Oliy Majlis palatalari majlislari, parlament nazorati tadbirlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri efirga uzatish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Pandemiya sharoitida dunyoning qator parlamentlari o‘z majlislarini vaqtincha to‘xtatgan vaqtlarda ham milliy parlamentimiz bir kun ham o‘z ishini to‘xtatmadi. “Elektron parlament” mexanizmlaridan samarali foydalangan holda barcha muhokamalar jarayoni onlayn tarzda davom etdi. Parlament faoliyatining ilmiy-tahliliy ta’minoti mustahkamlandi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzurida Parlament tadqiqotlari instituti tashkil etildi.

Qonun ijodkorligi faoliyati sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Jumladan, qonun loyihalarining xalqaro shartnomalar, O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalarga mosligini o‘rganish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. To‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilishga e’tibor kuchaytirildi. Muayyan sohadagi bir necha qonun o‘rniga yagona kodeks qabul qilish amaliyoti qaror topdi. Masalan, Saylov kodeksi, yangi Mehnat kodeksi, Tadbirkorlik kodeksi va boshqalarni sanab o‘tish mumkin.

Ilgari qonunchilik tashabbusi subyektlari parlamentga qonun loyihasini kiritish bilan kifoyalanib, uni deputatlar oldida himoya qilishga uncha e’tibor qilmas edi. Natijada boshqa tashabbuskorlar kiritgan qonun loyihasini ham deputatlarning o‘zi taqdimot qilishga va uni himoya qilishga majbur bo‘lar edi. Bu esa loyihaning qizg‘in muhokama qilinishiga salbiy ta’sir ko‘rsatardi. Endi esa qonun loyihasi birinchi o‘qishda ko‘rib chiqilayotganda qonunchilik tashabbusi subyektining o‘zi ma’ruza bilan chiqib, uni himoya qilmoqda. Qonun loyihasining muhokamasi tom ma’noda faollashdi, unga xolis baho berish tizimi yanada takomillashdi.

Parlamentning nazorat qilish vakolatlari ham sezilarli darajada kengaytirildi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining tegishli davlat dasturlari ijrosi bo‘yicha parlament oldida doimiy hisobot berish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Parlament nazoratining ushbu shakli hukumatning xalq vakillari oldidagi mas’uliyatini oshirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. “Hukumat soati” instituti amaliyotga joriy etilgani parlament nazorati faoliyatiga yangicha ruh olib kirdi, desak yanglishmaymiz. Zero, bugungi kunda aholini tashvishga solib kelayotgan hayotiy dolzarb muammolarga aynan “Hukumat soati” tadbirlarida yechim topilmoqda.

Ilgarigi tizimdan farqli o‘laroq, O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti qonun shaklida qabul qilinmoqda. O‘z navbatida, byudjet ijrosi ustidan parlament nazorati ham endi vazirlik va sohalar kesimida manzilli olib borilmoqda.

Bugungi kunda nafaqat hukumat faoliyatini nazorat qilish, balki hukumat a’zoligiga nomzodlarni Qonunchilik palatasi tomonidan ko‘rib chiqish va ma’qullash amaliyoti joriy etilgan. Bu esa hukumat tarkibini shakllantirishda xalq vakillarining bevosita ishtirokini ta’minlamoqda.

Parlament faoliyatida saylovchilar deputat oldiga emas, balki deputat o‘z saylovchilari huzuriga borishi shart, degan tamoyil ustuvorlik kasb etdi. Ilgari deputatlar o‘z saylovchilari bilan chorakda bir marta uchrashgan bo‘lsa, bugungi kunda deputatlar har oy saylov okruglarida bo‘lib, ularni qiynab kelayotgan muammolar bilan shug‘ullanmoqda. Axborot maydonida ham deputatlar faoliyati sezilarli darajada faollashdi. Deputatlar turli ijtimoiy tarmoqlarda o‘z sahifalari va kanallarini ochib, aholi bilan qayta aloqani yo‘lga qo‘ymoqda.

Keyingi yillarda parlamentda yoshlarning o‘rnini kengaytirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi. Oliy Majlisning ikkala palatasi huzurida tashkil etilgan Yoshlar parlamenti bugungi kunda chinakam yoshlar va parlament o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarmoqda. Buni 5 yil ichida Yoshlar parlamenti 100 dan ortiq qonun muhokamalarida hamda parlament qo‘mitalari bilan hamkorlikda 80 dan ziyod nazorat-tahlil faoliyatida ishtirok etgani misolida ham ko‘rish mumkin.



Jahongir SHIRINOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi raisi

Konstitutsiya davlatning bosh qonuni bo‘lib, shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. U mamlakat huquqiy tizimida ustun mavqega ega. 2023-yil 30-aprel kuni bevosita xalqimizning irodasi asosida, umumxalq ovozi, referendum yo‘li bilan yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi. U oldingi Konstitutsiyaga nisbatan qariyb 65 foiz yangilandi. Bosh qonunimizda inson huquqlariga oid normalar 3 barobar oshgani e’tiborga molik.

Konstitutsiyamizda ham insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsiz ekani, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi o‘z ifodasini topgan. Milliy qonunlarimizda esa inson sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi sodir etilgan qilmishlar uchun javobgarlik belgilangan.

Shu bilan birga, aybsizlik prezumpsiyasi yanada kuchaytirildi. Jumladan, ilgarigi Konstitutsiyamizda shaxsning ishi sudda ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmasligi belgilangan bo‘lsa, endi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha u aybsiz hisoblanishi mustahkamlandi.

Yana bir muhim norma — agar shaxsning o‘z aybini tan olgani unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi, har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlandi. Hatto qonunda nazarda tutilgan hollarda ham yuridik yordam davlat hisobidan ko‘rsatilishi belgilandi.

Bosh qonunimizda insonning ijtimoiy huquqlariga oid ko‘plab qoidalar kiritildi, eng avvalo, O‘zbekiston ijtimoiy davlat deb e’lon qilindi. Bu bilan esa davlatning ijtimoiy majburiyatlariga oid normalar qariyb uch barobar ortdi. Jumladan, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonga munosib yashashini ta’minlashni hisobga olgan holda belgilanishi nazarda tutildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada birinchi marotaba insonning ekologik huquqlari kafolatlari belgilangani diqqatga sazovor. Xususan, har kimning qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqi mustahkamlab qo‘yildi. Davlat atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha unga azob-uqubat yetkazadigan harakatlar taqiqlangan.

MAHALLIY KENGASHLAR ZIMMASIDAGI KATTA MAS’ULIYAT

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda xalq deputatlari kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qilishi, viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari kengashi raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi mustahkamlab qo‘yildi.

Shuningdek, xalq deputatlari kengashlarining vakolatlari muddati besh yil bo‘lib, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ayni bir viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari kengashi raisi etib saylanishi mumkin emasligi ham belgilandi.

Albatta, Bosh qonunimizda bunday muhim tamoyillarning aks ettirilishi bejiz emas. Zero, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish, xalq hokimiyatchiligini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishda xalq deputatlari mahalliy kengashlari faoliyati muhim o‘rin tutadi. Shu bois, bu tizimni rivojlantirish demokratik taraqqiyotni ko‘zlagan har bir davlat faoliyatida muhim mezon sanaladi.

Yaqin o‘tmishda bu tizim faoliyati maqtanarli darajada emasdi. 1992-yilgacha mamlakatimizda bir muddat mahalliy davlat hokimiyatiga ikki rahbar boshchilik qilgan holatlar ham bo‘lgan. O‘sha vaqtda ayrim rahbarlar dolzarb muammolarni hal qilib, hududni rivojlantirish o‘rniga obro‘ talashishdan ortmay qolgani ham bor gap.

Prezidentimiz Oliy Majlis Senatining birinchi majlisida bu masalalar xususida to‘xtalib, bunday xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarilishi lozimligini ta’kidladi. Mahalliy boshqaruvda sifat jihatidan yangi model joriy etilayotgan hozirgi vaqtda Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahri kengashlariga hokimlar emas, balki deputatlar orasidan saylangan kengash raislari boshchilik qilishi bilan bog‘liq siyosiy islohot natijasida bunday muammolarga oqilona yechim topilgani, bu esa xalqimizning 30 yillik orzusini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilganini alohida qayd etdi.

Aytish joizki, mahalliy kengashlarga raislik qilish insondan katta hayotiy tajriba talab qiladi. Bu lavozimdagi kishi xalq dardini o‘z dardi deb bilishi, odamlar orasida katta obro‘ga ega bo‘lishi, hududidagi muammolarni yaxshi bilishi, ularning yechimiga oid dolzarb vazifalarni kun tartibiga ko‘tara oladigan shaxs bo‘lishi lozim.

Mamlakatimizda joriy yil 27-oktabr kuni ochiqlik, oshkoralik, demokratiya tamoyillari asosida bo‘lib o‘tgan saylov ana shunday munosib insonlarni mahalliy kengashlar deputati etib saylashda muhim omil bo‘ldi. Shu bilan birga, ushbu saylov davlatimiz va jamiyatimiz rivojida ham, mahalliy kengashlar faoliyatida ham yangi davrni boshlab berdi. Yangi saylangan mahalliy kengashlar tarkibi va maqomiga ko‘ra oldingi holatdan mutlaqo farq qiladi. Ularning tarkibi qariyb 60 foiz yangilanib, 3 mingdan ortiq yurtdoshimiz ilk bor deputat bo‘lgani ham shundan dalolat beradi.

Ayniqsa, mahalliy kengashlarda ayol deputatlar ulushi 32 foizga yetgani, 30 yoshgacha bo‘lgan deputatlar soni 3,5 karra oshib, 266 nafarni tashkil etgani sohadagi ishlarni yangicha yondashuv va qarashlar asosida tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Ayni kunlarda mahalliy kengashlar deputatlari o‘z vazifasiga kirishar ekan, xalqimiz bildirgan ishonchni oqlash, hududlar rivoji va yurt farovonligiga xizmat qiladigan dastur va loyihalarda belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida ro‘yobga chiqarish borasida qizg‘in ish olib bormoqda.



“Mahalliy kengashlar ishi bir qarashda sezilmayotgandek tuyulishi mumkin. Ammo mamlakatimizning barcha hududlaridagi islohotlarda ularning o‘rni muhim. “Mahalla yettiligi”ga ko‘maklashish, mahallalarda qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi va asosliligini ta’minlashda ham mahalliy kengashlar deputatlari va mahalla faollari hamkorligi muhim omil bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, demokratik islohotlar natijasida mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyati tubdan takomillashmoqda. Mahalliy kengashlarga ko‘p vakolatlar berilib, maqomi ancha oshirildi. Masalan, mahalliy kengashlar 15 dan ortiq masala bo‘yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega. Qolaversa, hokimlarning 33 ta vakolati kengashlarga olib berildi, yana 17 ta vakolatni o‘tkazish rejalashtirilmoqda.

Misol uchun, ichimlik suv tarifiga ustama, davlat obyektlari va bozorlarda ijara to‘lovlari kabi jami 7 turdagi mahalliy yig‘im miqdorini tasdiqlash vakolati ham mahalliy kengashlarga o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, kengash so‘rovi va kengash tekshiruvi kabi yangi mexanizmlar orqali hududiy ijro organlari faoliyati ustidan nazorat kuchaytiriladi.

Mahalliy kengashlar ishi bir qarashda sezilmayotgandek tuyulishi mumkin. Ammo mamlakatimizning barcha hududlaridagi islohotlarda ularning o‘rni muhim. “Mahalla yettiligi”ga ko‘maklashish, mahallalarda qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi va asosliligini ta’minlashda ham mahalliy kengashlar deputatlari va mahalla faollari hamkorligi muhim omil bo‘lmoqda.

Ayni paytda o‘zgarayotgan davr, yangilanayotgan zamon barcha sohalar qatori mahalliy kengashlar faoliyatini ham yanada takomillashtirish borasida dolzarb vazifalarni kun tartibiga ko‘tarmoqda. Prezidentimiz Oliy Majlis Senatining birinchi majlisida bu borada to‘xtalib, qator yangi tashabbus va g‘oyalarni ilgari surdi. Jumladan, endi Senat qonunlarni muhokama qilishda yangicha mexanizmlarni joriy etishi, ayniqsa, qonun ijodkorligi jarayoniga mahalliy kengashlarni keng jalb qilish, har bir qonun bo‘yicha ularning fikrini olish amaliyotini yo‘lga qo‘yishi muhimligi qayd etildi.

Shuningdek, mahalliy kengashlar tomonidan har yarim yilda qilingan ishlar bo‘yicha matbuot anjumanlari o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi, hududlarni rivojlantirishga oid dasturlardagi vazifalar ijrosi bo‘yicha deputatlik va kengash nazoratini amalga oshirishda faol va tashabbuskor bo‘lish zamon talabiga aylanmoqda.

Byudjet munosabatlari sohasida ham mahalliy kengashlar juda katta vakolatlarga ega. 2025-yilda yer, mol-mulk va aylanma soliqlarini to‘liq, daromad solig‘ining esa kamida 50 foizini tuman va shaharlarning o‘zida qoldirish bo‘yicha qaror qabul qilish ko‘zda tutilgani mahalliy kengashlarning jamiyatimizdagi rolini yanada oshirishda muhim qadam bo‘ladi. Natijada 2025-yilda tuman va shaharlar budjetlari daromadi 9,4 trillion so‘m yoki 47 foiz oshadi.

Bu islohotlar tuman va shaharlardagi mas’ul va mutasaddi shaxslar o‘z hududlaridagi muammolarni mustaqil hal etishi uchun imkoniyatni tubdan oshirish barobarida mahalliy kengashlardan yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini qiynayotgan masalalar yechimi bo‘yicha asosli tashabbuslarni ilgari surishni ham talab etadi.

Zero, bu xayrli ishlar yurt obodligi, xalqimizning turmush farovonligi, yorug‘ kelajagimiz kafolati bo‘ladi. Shu bois, bu boradagi chora-tadbirlar ro‘yobga chiqishida joylardagi xalq vakillarining doimiy tashabbuskorligi yurtimiz taraqqiyotini yanada yuksaltirishdek ezgu ishlar bardavom bo‘lishiga xizmat qiladi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 143-moddasidan.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

KONSTITUTSIYA – XALQCHIL DEMOKRATIK ISLOHOTLARNING BOSH HUQUQIY ASOSI

Nig‘matilla YO‘LDOSHEV,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori

Boshlanishi 1-betda

Qonun hukmron bo‘lgan jamiyatda, albatta, adolat, siyosiy-ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish va yuksalish bo‘ladi, inson qadri, huquqi va manfaatlari ta’minlanadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlatchilik, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi. Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz bergani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Shu bilan birga, bosh qonunimizda xalqimizning yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganini ifoda etadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 7-moddasi birinchi bandida “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai” degan norma belgilab qo‘yilgan. Bu norma timsolida O‘zbekiston Respublikasida jahon miqyosida umume’tirof etilgan xalq hokimiyatchiligi prinsipi, ya’ni xalq suverenitetning asoschisi va davlat hokimiyatining yagona manbai ekanini anglatuvchi tamoyil mustahkamlab qo‘yilgan.

Shundan kelib chiqib, yangi O‘zbekiston inson sha’ni va qadr-qimmati, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari oliy qadriyatga aylangan davlat bo‘lishi, xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi, “odamlar tashvishi bilan yashash”, barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida, fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuv asosida qabul qilinishi kabi prinsip va g‘oyalarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, demokratiyaning talabu taomili va ustunligi ham shunda.

Bu jarayonda qonun chiqaruvchi va ijro organlaridan inson huquqlarini ta’minlash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament va siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, hokimiyat tarmoqlarini tiyib turish va muvozanatni saqlashda parlament rolini oshirish, davlat xizmatlari sifati va samaradorligini yaxshilash, davlat organlari faoliyatining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda parlament va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalga tatbiq qilishga alohida e’tibor qaratish talab etiladi.

Shu ma’noda, joriy yil 27-oktabrda parlament va mahalliy kengashlarga saylovlarni xalqimiz xohish-irodasini ifoda etgan siyosiy tanlov sifatida baholash mumkin. Zero, Konstitutsiyamizning 128-moddasida ham fuqarolar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga ega ekani belgilangan. Ovoz berish huquqi, xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlangan.

Bu muhim voqea “Mening tanlovim — obod Vatanim” shiorida, rivojlangan ijtimoiy-siyosiy muhitda, beshta siyosiy partiyaning teng raqobat kurashi ostida o‘tdi. O‘zbekiston tarixida ilk bor Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovlari aralash saylov tizimi, ya’ni majoritar-proporsional tizim asosida o‘tkazildi.

Deputatlarning 75 nafari bevosita majoritar tizim asosida, ya’ni saylovchilar o‘ziga maqbul nomzodlarga ovoz berishi yo‘li bilan, qolgan 75 nafari esa proporsional tizim bo‘yicha, siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar asosida saylandi.

Saylov qonunchiligi ilg‘or demokratik standartlarga mos ravishda tubdan takomillashtirildi. Saylovga 2023-yil 18-dekabr kuni qabul qilingan konstitutsiyaviy qonun — O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi va “Referendum to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha konstitutsiyaviy qonun asosida tayyorgarlik ko‘rildi.

Bu galgi saylovning yana bir muhim jihati shundaki, unda 2023-yili umumxalq referendumi asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq, aholining ayrim guruhlari uchun saylov huquqlarini cheklash bekor qilindi. Bu xalqaro standartlarga to‘liq mos keladi. Bundan tashqari, qonun hujjatlariga kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga qisqartirildi hamda hukumat faoliyati ustidan parlament nazoratining yangi mexanizmlari joriy etildi.

Saylov tizimini isloh qilish bo‘yicha qonunchilik jarayoni rasmiy ravishda jamoatchilik maslahatini o‘z ichiga olgan bo‘lib, fuqarolarga o‘z takliflarini bildirish imkonini berdi.

Bu esa Konstitutsiya asosida insonning siyosiy va boshqa huquq hamda erkinliklarini amalga oshirishi, davlat organlarining demokratik asosda shakllanishini ta’minlash, jamiyatning demokratik siyosiy tizimini shakllantirishga ko‘maklashish hamda demokratik institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari rolini kuchaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratish kafolatidir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekistonning besh ustuni, ya’ni suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani qat’iy belgilab qo‘yildi. Matn mazmuni tubdan takomillashtirilib, yangi bob va moddalar bilan boyitildi. O‘zbekiston Konstitutsiyasiga “dunyoviy va ijtimoiy davlat” ta’rifi kiritildi, o‘zbek xalqining farovon kelajagini ta’minlashga qaratilgan erkin bozor iqtisodiyoti asoslari mustahkamlandi, Prezidentning ayrim vakolatlarini parlamentga o‘tkazish orqali demokratlashuv jarayoni jadallashtirildi. Intellektual mulkdan tortib, inklyuziv ta’limgacha bo‘lgan muhim huquqlar kafolatlandi.

Ushbu konstitutsiyaviy referendum bilan xalq va davlat o‘rtasidagi “ijtimoiy kelishuv” yangilandi va yanada mustahkamlandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish uchun saylov yoshidagi aholining 90 foizdan ziyodi ovoz bergani xalqimiz Prezidentga ishonayotganidan, mamlakatimizdagi siyosatni qo‘llab-quvvatlayotganidan, davlatimizning ijtimoiy va qonunchilik siyosati izchil davom etishiga chin dildan umid qilayotganidan, eng muhimi, xalqimizning siyosiy ongi, huquqiy madaniyati va dunyoqarashi yuksalganidan dalolat.

Bugungi O‘zbekiston marrani juda baland olgan. Chunki globallashuv jarayoni shiddati, jahonda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarning rivojlanish tadriji shuni taqozo etmoqda. Har bir soat, har bir kundan samarali, unumli foydalanish suv va havodek zarur. O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman, yurt va xalqning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratadi.

Prezidentimizning siyosiy irodasi bilan boshlangan o‘zgarishlar nafasi xalqimizga chinakam erk berdi, qadrini yuksakka ko‘tardi. Xalqimiz buni qalbdan his qilib turibdi. Shunga yarasha xalqimizning dunyoqarashi ham o‘zgardi. Har qanday islohot yo davlat tizimini o‘zgartirish, yo xalq hayotini yangilash, yo iqtisodiyotga qaratilganiga ko‘p guvoh bo‘lganmiz, lekin O‘zbekistonda 2016-yildan boshlangan islohotlar butunlay boshqacha mazmun kasb etdi.

Islohotlar markazida inson turgani qolgan barcha yangilanishlar mana shu inson atrofida kechgani butun dunyo uchun yangilik bo‘ldi deb aytishga to‘la asoslar bor. Shuning uchun ham islohotlar negizida namoyon bo‘lgan inson nafaqat hayoti o‘zgarishini, balki butun tafakkuri yangilanishini, o‘z huquqlari konstitutsiyaviy ta’minlanishini istashi tabiiy.

Inson qadri toptaladigan, hayoti, taqdiri kimlarningdir xohish-istagi bilan boshqariladigan, davlat qudrati esa tabiiy boyliklari, harbiy kuchi, iqtisodiy imkoniyatlari bilan o‘lchanadigan davrlar allaqachon o‘tib ketgan. Bugun xalqning, eng avvalo, turmush darajasi, huquqlari, intellekti, dunyoqarashi, tafakkur olamiga qarab baho berish urfga kirdi. Inson tafakkuri, hayotdan rozilik darajasi, haq-huquqlari so‘zsiz ta’minlanishi har qanday davlat qudratidan muhimroq. Bugun O‘zbekiston tanlagan yo‘l insonni qadrlash, yaxshi ko‘rish, rozi qilishga qaratilgani bilan ham dunyoni hayratga solmoqda.

Konstitutsiyani yangilash ehtiyoji ham shu talablardan kelib chiqdi. O‘zbekistonda, avvalo, inson qadri birinchi o‘ringa ko‘tarildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson jamiyat va davlatdan ustun qo‘yildi. Qisqasi, biz ijtimoiy davlat qurish sari yo‘l olyapmiz. Konstitutsiyada ham bu masala muhrlandi.

Ijtimoiy davlatda har bir inson uchun munosib yashash sharoiti kafolatlanadi. Hech kim e’tibordan chetda qolmaydi. Bir inson muammosiga butun jamiyat muammosi sifatida qaraladi. Odamlar o‘z tashvishi va qiyinchiliklari bilan yolg‘iz qoldirilmaydi.

Prokuratura organlari xodimlari asosiy qonunimizda mustahkamlangan normalar asosida har bir fuqaroga g‘amxo‘rlik qilish, inklyuziv rivojlanish, aholining barcha qatlami uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlashga harakat qilmoqda. Xususan, ijtimoiy-iqtisodiy sohaga oid qonunlar, Prezident qarorlari ijrosini ta’minlash borasida asosiy e’tibor aholini ijtimoiy muhofaza qilish, muhtoj oilalar, yoshlar va xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratildi.

Birgina prokurorlar sektoridagi “Temir daftar”ga kiritilgan 7 mingdan ortiq oilaga har tomonlama ko‘mak berildi. Bundan tashqari, prokurorlar ko‘magi bilan qariyb 40,5 ming xotin-qiz ishga joylashtirildi. 4 mingdan ziyod yosh ish bilan ta’minlandi, 5 mingga yaqini kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘rganish kurslariga jalb etildi.

Shu o‘rinda bir masalaga e’tibor qaratmoqchiman. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlatning ijtimoiy majburiyatlari 3 barobar ko‘paytirildi. Bu raqamni aytish oson, lekin uni amalda ta’minlashning o‘zi bo‘lmaydi. Mamlakatimizda “Qonun — ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar” degan ezgu tamoyil asosida qonuniylikni ta’minlash borasidagi ishlarda prokuratura xodimlari jonbozlik ko‘rsatishi lozim deb o‘ylayman. Xalqimizning og‘irini yengil qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish, kambag‘allikka qarshi kurashishga qaratilgan dasturlar ijrosini nazorat qilish, atrof-muhit, tabiiy boyliklar va madaniy merosimizni ko‘z qorachig‘idek asrash, tibbiyot, ta’lim va boshqa sohalardagi islohotlarni ro‘yobga chiqarishda lokomotiv bo‘lish hamda bu borada qonun buzilishiga qarshi murosasiz kurashish prokuratura xodimlarining konstitutsiyaviy burchi va eng asosiy vazifasidir.



Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlatning ijtimoiy majburiyatlari 3 barobar ko‘paytirildi. Bu raqamni aytish oson, lekin uni amalda ta’minlashning o‘zi bo‘lmaydi. Mamlakatimizda “Qonun — ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar” degan ezgu tamoyil asosida qonuniylikni ta’minlash borasidagi ishlarda prokuratura xodimlari jonbozlik ko‘rsatishi lozim deb o‘ylayman.

O‘zbekiston Respublikasining prokuratura organlari o‘z vakolatlarini boshqa davlat organlaridan, o‘zga tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va qonunlariga bo‘ysungan holda amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 145-moddasidan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ijtimoiy-iqtisodiy sohaga oid qonunlar, Prezident qarorlari ijrosini ta’minlash borasida asosiy e’tibor aholini ijtimoiy muhofaza qilish, muhtoj oilalar, yoshlar va xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlatning ijtimoiy majburiyatlari 3 barobar ko‘paytirildi. Bu raqamni aytish oson, lekin uni amalda ta’minlashning o‘zi bo‘lmaydi. Mamlakatimizda “Qonun — ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar” degan ezgu tamoyil asosida qonuniylikni ta’minlash borasidagi ishlarda prokuratura xodimlari jonbozlik ko‘rsatishi lozim deb o‘ylayman. Xalqimizning og‘irini yengil qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish, kambag‘allikka qarshi kurashishga qaratilgan dasturlar ijrosini nazorat qilish, atrof-muhit, tabiiy boyliklar va madaniy merosimizni ko‘z qorachig‘idek asrash, tibbiyot, ta’lim va boshqa sohalardagi islohotlarni ro‘yobga chiqarishda lokomotiv bo‘lish hamda bu borada qonun buzilishiga qarshi murosasiz kurashish prokuratura xodimlarining konstitutsiyaviy burchi va eng asosiy vazifasidir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada juda muhim ijtimoiy masalalar o‘z aksini topgan. Jumladan, bosh qonunimizga alohida modda sifatida kiritilgan ta’lim sohasi jamiyatimizdagi eng dolzarb, islohotlarni talab etadigan yo‘nalishlardan biridir. Birinchi navbatda, o‘qituvchilar maqomini ko‘tarish, qadr-qimmatini yuksakka olib chiqish Konstitutsiyada ifodasini topdi. Ustoz-murabbiylar qadrlangan davlatda, birinchi o‘rinda, yosh avlodni yetuk kadr, xalq xizmatchisi qilib tarbiyalashga zamin yaratiladi. O‘qituvchilar vazifasi barkamol avlodni tarbiyalash bilan birga milliy qadriyatlarimiz, an’analarimizni avloddan avlodga olib o‘tuvchi mutaxassislar tayyorlashdir. Shu bois, ularning huquq va erkinligi qonun bilan mustahkamlandi.

Bir haqiqatni chuqurroq bilishimiz, anglashimiz shart. Konstitutsiyaviy islohotlar zamirida, avvalo, yurtdoshlarimizga munosib hayot darajasini yaratish, haq-huquqlarini himoya etish, xususiy mulk huquqini kafolatlash, qiynoqlar, tazyiqlar, tahqirlarga chek qo‘yish, tadbirkorlikka g‘ov bo‘ladigan har qanday illat bilan murosa qilmaslik kabi insonparvar maqsadlar mujassamlashgan.

Shu ma’noda, iqtisodiy sohada nazorat faoliyatini amalga oshirishda asosiy e’tibor iqtisodiyot tarmoqlari barqarorligini saqlash, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga doir vazifalar ijrosiga qaratilyapti. Masalan, o‘tgan davrda 6,2 mingdan ziyod tadbirkorga 752,5 milliard so‘mlik kredit, qariyb 450 nafar ishbilarmonga 1700 gektarga yaqin yer maydoni, 115 nafariga bino, 1,2 mingga yaqiniga litsenziya va ruxsatnoma berilishida, 7,5 mingdan ziyodiga kommunikatsiya tizimlariga ulanishi, 8,5 mingga yaqiniga boshqa muammolari hal etilishida prokuratura organlari tomonidan amaliy yordam ko‘rsatildi.

Prokuratura organlari ko‘magi bilan 6,5 mingdan ortiq yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etildi, 7,5 mingga yaqin subyekt faoliyati tiklandi, 18 mingdan ortiq yangi ish o‘rni ochilishi ta’minlandi.

Kredit mablag‘lari talon-taroj qilinishining oldini olish, muammoga aylangan kredit qarzlari qaytarilishini ta’minlash ustidan nazorat kuchaytirildi. Natijada jami 18,4 trillion so‘mlik yoki 69 foiz muammoli kreditlar qisqartirildi.

Konstitutsiyamizning 1-moddasida “O‘zbekiston — suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” deb qat’iy belgilab qo‘yilgani tarixiy ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, xalqimizning xohish-irodasi bilan asosiy qonunda muhrlangan bu prinsiplar — mamlakatimizning taraqqiyot yo‘li va taqdirini, kelajagini belgilab bergan ushbu “beshta ustun” hech qachon o‘zgartirilmaydi. Zero, bu tamoyillar faqat va faqat xalqimiz, vatanimiz manfaatlarini himoya qilish, tengsiz va buyuk ne’mat — mustaqilligimizni asrab-avaylash, yanada mustahkamlash va kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirishni ko‘zlaydi. Bunda, eng avvalo, mashaqqatli mehnat, ter to‘kish kerak. Davlatimiz rahbari bu borada qator vazifalarga to‘xtalib o‘tdi.

Birinchidan, milliy xavfsizlikni ta’minlash, Qurolli Kuchlar jangovar salohiyatini oshirishga qaratilgan ishlar yangi bosqichga olib chiqiladi.

Ikkinchidan, “xavfsiz shahar”, “xavfsiz mahalla”, “xavfsiz ko‘cha” konsepsiyalari jadal amalga oshiriladi.

Uchinchidan, totuvlik, millatlararo do‘stlik va bag‘rikenglik muhitini yanada mustahkamlash uchun bor kuch va imkoniyatlar safarbar etiladi. Chunki aynan millatlararo totuvlik — 130 dan ziyod millat va elat istiqomat qiladigan O‘zbekistonimizning eng katta boyligi.

To‘rtinchidan, dunyodagi hozirgi murakkab vaziyatda O‘zbekiston tinchliksevar tashqi siyosatni davom ettirib, uzoq va yaqin davlatlar bilan do‘stlik aloqalarini, barcha sohalarda o‘zaro hamkorlikni rivojlantirib boraveradi. Mamlakatimiz o‘z mustaqilligi va suverenitetini ta’minlash maqsadida faqat milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda bundan buyon ham o‘zi tanlagan mustaqil taraqqiyot yo‘lida tashqi siyosatini qat’iy davom ettiradi.

Bosh qonunimiz mamlakatda qonun ustuvorligini ta’minlash hamda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish hamda korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish borasida tizimli ishlar bajarildi.

Joriy yil yanvar-noyabr oylarida yashirin iqtisodiyotni qisqartirish hisobiga 15,7 trillion so‘m qo‘shimcha manba aniqlanib, davlat budjetiga 15,3 trillion so‘m undirilishi ta’minlandi.

Iqtisodiy jinoyatlar, xufiyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘rilgan choralar natijasida qariyb 8,5 mingta huquqbuzarlik aniqlanib, 2 mingga yaqin ma’muriy va 6,5 mingga yaqin jinoyat ishi qo‘zg‘atildi.

O‘tkazilgan tezkor tadbirlar davomida 1750 ta yashirin sex faoliyati fosh etilib, 103,1 milliard so‘mlik tovar-moddiy boyliklar olib qo‘yildi. Valyutaning noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq 350 dan ortiq huquqbuzarlik aniqlanib, 1,1 million AQSH dollari va 10,3 milliard so‘m musodara qilindi.

Tadbirkorlik bilan noqonuniy shug‘ullangan 13 ming 700 dan ziyod shaxsning tadbirkorlik subyekti sifatida ro‘yxatdan o‘tishi ta’minlandi. Virtual va Xalq qabulxonalaridan kelib tushgan qariyb 150 mingta murojaatdan 90,6 foizi hal qilindi.

Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan shaxsni qiynoqqa solish va qadr-qimmatini kamsitish hamda boshqa g‘ayriqonuniy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish choralari yanada kuchaytirildi.

Jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan kelib tushgan yuzdan ortiq ariza va xabarlarning barchasi bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv harakatlari o‘tkazildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tegishli idoralar bilan birgalikda mahalliy davlat hokimiyati, sog‘liqni saqlash, sport, oliy ta’lim, qurilish, kambag‘allikni qisqartirish va bandlik tizimidagi xodimlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, ayniqsa, yo‘l qo‘yilayotgan korrupsiyaviy holatlarning sabab va shart-sharoitlari tahlil etilib, tegishli vazirlik va idoralarning kengaytirilgan yig‘ilishlarida ularning rahbarlari va mas’ul xodimlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilindi hamda zarur chora-tadbirlar ko‘rildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunni amaliyotga samarali joriy etish chora-tadbirlari yuzasidan qabul qilgan qarorida belgilangan talablar ijrosini ta’minlash choralari ko‘rilmoqda.

Davlatimiz rahbarining mamlakatimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalar, Konstitutsiyaning har bir moddasi, har bir bandi bajarilishi lozimligi haqidagi fikrlari barchamizni yanada mas’uliyatli bo‘lishga, yurt manfaati uchun halol va vijdonan ishlashga da’vat etadi.

O‘zbekiston nafaqat iqtisodiy islohotlarni davom ettiradi, balki jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash uchun ham intiladi. Zero, Konstitutsiyamizda ilk bor O‘zbekiston Respublikasiga huquqiy davlat degan ta’rif berilgani bejiz emas. Bu, avvalambor, barcha sohada qonun ustuvorligi ta’minlanadi, deganidir. Bundan buyon qonunlardagi noaniqliklar inson foydasiga hal bo‘ladi. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish uchun sudlarning odil va mustaqil ish yuritishini, albatta, amalda ta’minlashimiz zarur.

Asosiy qonunimizda hech kim sud qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi belgilandi. Erkinlikni cheklashga faqat sud qarori asosida yo‘l qo‘yilishi haqidagi qoida mustahkamlandi. Ayblanuvchiga o‘ziga qarshi ko‘rsatma bermaslik, ya’ni “sukut saqlash” huquqi birinchi marta alohida belgilab qo‘yildi. Shuningdek, Konstitutsiyamizga advokatura haqida alohida bob kiritilib, advokatlik maqomi mustahkamlandi.

Albatta, asosiy qonunga kiritilgan ilg‘or yangiliklarni amalda joriy etish oson bo‘lmaydi. Buning uchun yurtdoshlarimizning o‘zidan ham qonuniy huquqlari uchun kurashish talab etiladi. “Qars ikki qo‘ldan chiqadi” deganlaridek, tergovchi, prokuror, sudya, advokatlarning bilimi va malakasi, ma’naviy dunyosini yuksaltirish bilan birga aholining ham huquqiy madaniyatini oshirish, dunyoqarashini o‘zgartirish talab etiladi.

Yangi O‘zbekistonning Konstitutsiyasi mamlakatimizning yangi rivojlanish davrini boshlab beryapti. Qolaversa, u Uchinchi Renessansning poydevori, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu, albatta, barchamizdan juda katta mas’uliyat va talabchanlikni, o‘z o‘rnida, javobgarlikni talab qiladi. Ushbu omil Konstitutsiyani jamiyat hayotining barcha jabhasida to‘g‘ridan to‘g‘ri va bevosita qo‘llash amaliyotiga o‘tish imkonini berar ekan, xalqimiz asosiy qonunning hayotbaxsh kuchi va ta’sirini o‘z kundalik turmushida teran his etaveradi.





Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.
Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas.
Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi.
Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas.
Shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasi.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz



YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI — BARQAROR TARAQQIYOT KAFOLATI

Po‘lat BOBOJONOV,
ichki ishlar vaziri,
general-leytenant

O‘zbekistonda jamiyat, davlatning evolyutsion rivojlanishidan kelib chiqiladigan bo‘lsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish biz uchun hayotiy zarurat edi. Binobarin, ushbu hujjat davlatimiz va xalqimizning keyingi qadamlari, taraqqiyot istiqbollarini belgilab berdi.



Keyingi yillarda erishilgan muvaffaqiyatlar, xususan, inson huquqlari, odil sudlov, so‘z va vijdon erkinligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi yutuqlar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda muhrlab qo‘yildi. Bu esa ularning barchasidan nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlarimiz ham erkin foydalanishi kafolatlandi, deganidir.

Bosh qonunimizda O‘zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani qat’iy belgilab qo‘yildi. Shu o‘rinda “ijtimoiy” tushunchasiga alohida urg‘u berishni istardim. Bu insonga e’tibor va g‘amxo‘rlik degani. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq normalar 3 barobar ko‘paytirildi. Har kimning uy-joyli bo‘lish, munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish kabi huquqlari shular jumlasidandir.

Yangilangan Konstitutsiyaga ko‘ra, hech kim sudning qarorisiz va qonunga nomuvofiq holda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas. Uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta’minlanadi.

Respublikamizda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadlaridan biri. Yangilangan Konstitutsiyada inson huquqlariga oid normalar 3 barobardan ortiqqa ko‘paydi. Inson huquq va erkinliklari qonunlarimiz, har bir vazirlik va idora faoliyatining mazmuniga aylanishi borasida qat’iy talab qo‘yildi. Bu esa davlat organlari va mansabdor shaxslar o‘z faoliyatini “inson qadri uchun” tamoyili asosida amalga oshirishiga zamin bo‘ladi. Davlat va inson o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar, turli tushunmovchiliklar inson foydasiga hal etiladi.

Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda Konstitutsiyaga muvofiq ta’minlanadi. Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak. Qonunchilikda belgilanmagan majburiyat hech kimning zimmasiga o‘z roziligisiz yuklatilishi mumkin emas. Bosh qonunimizda aks etgan ushbu normalar oddiy odamlarning hayotini yanada yengillashtiradi.

Bosh qonunimiz yurtimiz fuqarosi O‘zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilmasligini yoki boshqa davlatlarga berilmasligini kafolatlaydi. Bu hamyurtlarimizning doimiy ravishda davlat himoyasida ekaniga ishonchini mustahkamlab, vatanparvarlik tuyg‘usini jo‘sh urdiradi. Shuningdek, xorijda yashayotgan vatandoshlarimiz bilan aloqalarimizni saqlab qolish va rivojlantirish masalalariga ham davlat g‘amxo‘rlik qilishi belgilandi. Ushbu norma chet ellarda yashayotgan, ishlayotgan, ta’lim olayotgan vatandoshlarimiz o‘z yurti bilan doimiy aloqada bo‘lishiga, tili, madaniyati, urf-odatlari va an’analarini saqlab, yanada rivojlantirishga, tarixiy vatan — O‘zbekistonning obro‘sini yanada oshirishga hissasini qo‘shishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda o‘lim jazosining taqiqlanishi Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. Bu insonni hayotdan hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini kafolatlaydi.

Shaxsni sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turish mumkin emas. Ushbu qoida insonlarni noqonuniy hibsga yoki asossiz qamoqqa olishga va saqlashga yo‘l qo‘yilmaslikka qaratilgan. Shu tariqa odamlarning huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq barcha harakatlarga faqat sud qarori asosida yo‘l qo‘yilishi mustahkamlandi. Ya’ni odil sudlovni amalga oshirishda “Xabeas korpus” va “Miranda qoidasi” institutlari yanada kengaytirildi, ilk bor ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o‘ziga qarshi ko‘rsatma bermaslik, ya’ni “sukut saqlash” huquqi berildi.

Unda har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqliligi belgilandi. Ushbu qoidaning mazmun-mohiyati shundaki, fuqarolar buzilgan huquq va erkinliklarini o‘zgalar huquqlarini buzmagan holda mustaqil himoya qilish huquqiga ega. Yagona shart fuqarolar



tomonidan o‘zini himoya qilishda qo‘llaniladigan usullar yoki choralarning qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan bo‘lishidir.

Endi har kim O‘zbekiston qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha mavjud ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, murojaat etishga haqli. Agar xalqaro shartnomada O‘zbekiston qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, O‘zbekistonda xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llanilishi mustahkamlandi. Mazkur qoida fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasi nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida himoyalanishini ta’minlaydi. Davlat organlari yoki mansabdorlar tomonidan shaxslarga nisbatan g‘ayriqonuniy qaror yoki xatti-harakatlar sodir etilishining oldini oladi, shaxslarga yetkazilgan zarar o‘z vaqtida va to‘liq qoplab berilishini ko‘zda tutadi.

Bundan buyon shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda o‘z huquqlari va ushlab turilish asoslari tushuntirilishi shart. Aybdorlikka oid barcha shubhalar agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinadi. Mazkur norma tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta’minlaydi, natijada shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan himoya qiladi.

Bosh qonunimizda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlab berishi shart emasligi mustahkamlandi. Hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilandi. Bu jinoiy ta’qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o‘tkazish, sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo‘llanilishining oldini olishga qaratilgan oliy huquqiy normadir.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi hamda inson shaxsiga xos bo‘lgan sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga egaligi mustahkamlandi. Shaxsning sudlangani va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emas.

Endi har bir shaxsning mamlakatimiz bo‘ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini erkin tanlash, yurtimizdan tashqariga chiqish hamda O‘zbekiston fuqarolarining o‘z vataniga moneliksiz qaytish huquqlari Bosh qonunimiz darajasida mustahkamlandi. Ushbu qoidalarning barchasi O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularning buzilishi holatlariga barvaqt barham berishga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaga advokatura institutiga bag‘ishlangan va advokatlar faoliyati kafolatlarini mustahkamlovchi alohida bob kiritildi. Advokat va uning kasbiy faoliyati davlat himoyasida ekani, advokatning kasbga oid huquqlari, sha’ni va qadr-qimmati qonun bilan qo‘riqlanishi mustahkamlandi.

Yangilangan Konstitutsiya “shaxs — jamiyat — davlat” tamoyiliga amal qilgan holda demokratiya, qonun ustuvorligi, insonparvarlik, adolat, vatanparvarlik kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ayniqsa, qonuniylik, tenglik kabi konstitutsiyaviy prinsiplarni ta’minlab beradi.

Bu esa har bir inson uchun O‘zbekistonda munosib hayot kechirish, o‘zining hayoti, sog‘lig‘i kabi bebaho ne’matlarini ishonchli himoya qilish, barkamol rivojlanish orqali jamiyatimizning muhim a’zosi sifatida shakllanish uchun mustahkam zamin yaratilganidan dalolat.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Sharh

TEMIR YO‘L TRANSPORTI TIZIMIGA XUSUSIY SEKTOR JALB QILINADI



“Davrning o‘tkir talablariga javob beradigan, sifatli, amaliyotda samarali ishlaydigan qonunlarni qabul qilish Oliy Majlisning eng muhim vazifasi, kerak bo‘lsa, uning obro‘sidir”, degan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shu yil 20-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisidagi nutqida.



Prezidentimiz joriy yil 27-noyabrda “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi qonunni imzoladi. U 2025-yil 1-yanvardan kuchga kiradi

Oradan olti kun o‘tib — 26-noyabr kuni esa davlatimiz rahbari temir yo‘l va aviatsiya sohasidagi davlat kompaniyalarida transformatsiya jarayoni borishiga oid taqdimot bilan tanishar ekan, ham iqtisodiy samaradorlik, ham odamlarga qulaylik nuqtayi nazaridan sohada katta o‘zgarishlar qilinayotganini qayd etdi. Bir kundan keyin — 27-noyabrda “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi qonun imzolandi.

Hozir bu voqealarni ketma-ketlikda aytayotganimiz boisi taniqli xitoy faylasufi Shan Yanning “Yaxshi qonun xalqqa hurmat ifodasidir”, degan so‘zlarini eslab qolganimizda. Bunga tutash yana bir sabab esa yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamiz asl mohiyatida ko‘zda tutilgan barcha qonun va qarorlarimizda faqat va faqat xalqimiz, Vatanimiz manfaatlari eng ustuvor o‘rinda turishi shartligi tamoyilining hayotdagi amaliy ifodasiga bir qur nazar tashlash edi.

Bu haqdagi mulohazalarimizni temir yo‘l transporti tizimiga doir ayrim raqamlar bilan boshlasak. “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tarkibida 6 ta mustaqil korxona tashkil etildi. 1200 ta yangi yuk vagoni olindi, ichki yo‘nalishda yuk tashish vaqti 2 karra kamaydi. Raqamlashtirish natijasida vagonga buyurtma berish 7 bosqichdan 3 bosqichga, bunga ketadigan vaqt 72 soatdan 12 soatga qisqardi. Toshkent atrofida poyezdlarni o‘tkazish imkoniyati 30 foiz oshirildi. Ilgari zarar bilan ishlagan aksiyadorlik jamiyati bu yilni 30 milliard so‘m foyda bilan yakunlayapti. Bu tarmoq uchun tarixiy ko‘rsatkichdir.

Bunga nimalar asos bo‘ldi?

Mamlakat farovonligi, odamlarning hayot tarzi, yurtimizdagi bunyodkorliklar, islohotlar, umuman, yon-atrofimizdagi barcha o‘zgarishlar bevosita Bosh qonunimizda belgilangan normalarga bog‘liq. “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati ham Konstitutsiyamiz asosida taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tmoqda. Ayni paytda mamlakatimizda temir yo‘l transporti zamonaviy infratuzilma asosida rivojlanmoqda. Xalqaro bozorlarga chiqish uchun yangi yo‘llar yotqizilmoqda. Mamlakatimizni boshqa davlatlar bilan bog‘lovchi temir yo‘l transporti yo‘li tarmog‘i yaratilmoqda. Yo‘lovchi va yuk tashish yo‘nalishiga oid yangi qonun hamda boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlar bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etyapti. Temir yo‘l tarmog‘ini modernizatsiya qilish, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, xususiy investitsiyalarni jalb etish, boshqaruv jarayonini raqamlashtirish va mamlakat tranzit imkoniyatidan samarali foydalanishga xizmat qilyapti. Xususan, Prezidentimizning 2023-yil 10-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida temir yo‘l transporti sohasini bosqichma-bosqich isloh qilishga doir ustuvor vazifalar belgilandi.

2024-yilda mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o‘rin tutgan bunyodkorlik amalga oshirildi. Qoraqalpog‘istonni Xorazm viloyati bilan bog‘lovchi 85 kilometrli “Shovot — Qorao‘zak” yangi temir yo‘l liniyasi hamda Amudaryo ustidan o‘tuvchi 423 metrli temir yo‘l va avtomobil yo‘li qo‘shma ko‘prigi foydalanishga topshirildi. Hozir ushbu ko‘prik orqali bir kunda o‘rtacha 12 mingta avtomobil hamda 24 juft poyezd qatnovi amalga oshirilmoqda. Mazkur yo‘nalish masofasi 156 kilometr qisqarib, poyezdlar harakati 2 soat 30 daqiqani tashkil etmoqda. Shuningdek, loyihaga muvofiq, 241 ta sun’iy suv o‘tkazish inshooti, 10 ta temir-beton ko‘prik, 1 ta tunnel tipidagi yo‘l o‘tkazgich va 3 ta temir yo‘l o‘tkazgich qurilishi bitkazildi. Barcha qulayliklarga ega “Gurlan” va “Mang‘it” temir yo‘l vokzallari barpo etildi.

Mintaqamizning iqtisodiy va transport aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan “Xitoy — Qirg‘iziston —O‘zbekiston” temir yo‘li qurilishi bo‘yicha strategik loyihani amalga oshirish to‘g‘risidagi bitim imzolandi. Mazkur temir yo‘l Xitoyni mamlakatimiz bilan bog‘lovchi eng qisqa quruqlik yo‘liga aylanadi.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlantirish faoliyatidagi muhim qadam sifatida yangi axborot texnologiyalari markazi tashkil etildi. Bu orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati yanada yaxshilandi, ish unumdorligi ortib, yuqori samaradorlikka erishildi. 2023-2025-yillarda temir yo‘l sohasiga 15 ta IT loyiha joriy etilishi belgilangan. Hozirgacha 10 ga yaqin axborot tizimi ishga tushirildi.

Tizimni raqamlashtirish borasidagi eng asosiy yo‘nalishlardan biri yuk tashishda raqamli texnologiyalar joriy etilishidir. Bu jarayonda “Yagona darcha” tamoyili asosida E-NAKL platformasi yaratildi. Ushbu platforma tufayli masofadan turib temir yo‘l xizmatidan foydalanish, vagonlarga joyidan turib taqdimnoma berish, temir yo‘l va yuk tashuvchilar o‘rtasida elektron shartnoma tuzish, qog‘oz ko‘rinishidagi hujjatlarni to‘liq elektronlashtirish, tariflarni hisoblashda inson omilidan voz kechish orqali korrupsiya holatlarining oldini olish imkoni yaratildi.

Oldin vagonlarga ariza berish uchun 72 soat muddat talab etilgan va jarayon 7 bosqichda amalga oshirilgan bo‘lsa, hozir sarflanayotgan vaqt 60 soatga qisqartirilib, 3 ta bosqichda temir yo‘l xizmatidan foydalanish mumkin. “Yagona darcha” axborot tizimi bilan nafaqat xizmat ko‘rsatish vaqti qisqardi, balki elektron hujjatlar ulushi ham 95 foizga yetkazildi.

Shunday bo‘lishiga qaramay, tizimning asosiy faoliyatini belgilovchi “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi qonunni qayta ko‘rib chiqish zarurati mavjud edi. Chunki bugun davr boshqacha, munosabatlar yangicha shaklda takomillashib, mustahkamlanib bormoqda. Bu esa yangi huquqiy asosga ehtiyojni yuzaga chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi qonuni loyihasini tayyorlash doirasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati, xususan, ishlab chiqarish korxonalari faoliyati bilan tanishgan edi. Joriy yil 27-noyabrda davlatimiz rahbari “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi qonunni imzoladi. U 2025-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

— Qonun 9 bob hamda 59 moddadan iborat. Uni qabul qilishdan maqsad temir yo‘l transporti sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdir, — deydi Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamenti tergov boshqarmasi katta tergovchisi, mayor B.Mirzayev. — Qonunda temir yo‘l transporti sohasini davlat tomonidan tartibga solish usullari, yo‘lovchilarning, tashuvchilarning, vagon (konteyner) operatorlarining huquq va majburiyatlari belgilab qo‘yildi. Temir yo‘l transportida davlat-xususiy sheriklik, tashish tariflari, tizimda mehnatga oid munosabatlarni tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari va xodimlar intizomi hamda talablar va da’volarni ko‘rib chiqish kabi moddalar mavjudligi tarmoq huquqiy jihatdan taraqqiy etishi, yanada samarali faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

Ushbu qonunga asosan, davlat monopoliyasidan voz kechilib, sohaga xususiy sektorni jalb qilish ko‘zda tutilmoqda. Endi xususiy sektorga ham yo‘lovchi va yuk tashishga ruxsat beriladi. Bundan tashqari, sohani tubdan takomillashtirish maqsadida xususiy sektorga investitsiya jalb qilish bo‘yicha keng yo‘l ochilmoqda. Davlat-xususiy sheriklik asosida hamkorlik qilish uchun imkoniyat yaratiladi. Shu bilan birga, qonun zamonaviy normalar bilan to‘ldirilib, takomillashtirildi.

Bu yangilanish sohaga xususiy kompaniyalar va investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirishga keng yo‘l ochadi.

Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Rustam HAYDAROV,
jurnalist

**Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega.
Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega.
Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash, shuningdek, davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi.**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasi.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

VATANPARVARLIKKA chorlov

Shahzod OMONOV,
O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi Surxondaryo viloyati kengashi harbiy qism va muassasalardagi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘limi boshlig‘i



Mamlakatimizning yangilangan Konstitutsiyasi bilan yaqindan tanishar ekansiz, bor bo‘yicha “vatanparvarlikka chorlov” degan xulosaga kelishingiz shubhasiz.

Jumladan, muqaddimaning o‘zidayoq: “O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarini hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad qilgan holda, ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e’lon qilamiz” deyiladi.

Xalqimiz azaldan qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatda bo‘lib, shodumon davrlarda ham, rutubatli kunlarda ham yondosh-jondosh bo‘lib yashagan, kurashgan, tinchlikka va yuksalishga intilgan. Bu birdamlik esa bugungi kunda notinch dunyo voqeliklari fonida g‘oyat ahamiyatli.

Surxondaryo uchta davlat bilan chegaradosh. Hozirgi vaqtda bu davlatlar bilan aloqalar yuqori darajada mustahkamlangan. Bosh qonunimiz esa bu jarayonlarda biz uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Yaqinda O‘zbekiston va Tojikiston chegarasida ikki davlat chegara qo‘shinlari xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish maqsadida “Payvand — 2024” harbiy-taktik o‘quv mashg‘uloti o‘tkazildi. Asosiy maqsad davlatlarimiz chegaralari daxlsizligini ta’minlash, ikki mamlakat chegarachilarining har qanday tahdidlarga qarshi birgalikda tura olish va nostandart vaziyatlarda o‘zaro kelishilgan holda hamkorlikda harakatlanish bo‘yicha ko‘nikmalarini yanada oshirishdan iborat.

Bu yakdil tayyorgarliklarni kuzatib, Bosh qonunimizda aks etgan asoslar g‘oyat ahamiyatli ekanini angladim. Kishiga milliy g‘urur beradigan yangilanishlarga bir qur nazar tashlaymiz: Konstitutsiyamizning eski tahrirdagi 1-moddasidagi “O‘zbekiston — suveren demokratik respublika” jumlasi yangi tahrirda “O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”, deya o‘zgartirilgan. Bu ham mamlakat yuksalayotganining bir ifodasi deb baholadim. Shuningdek, 3-moddada “O‘zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmasdir”, 61-moddada “Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart”, 64-moddada “O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar”, 152-moddada “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi”, 153-moddada esa “O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega”, deya belgilab qo‘yilgan.

Xo‘sh, Bosh qonunni bilish kishiga, kelajak egalari sanalgan yosh avlodga nima beradi? Avvalo, harbiy-vatanparvarlik tadbirlari o‘tkazar ekanmiz, ularga Konstitutsiya milliy ruhiyat, g‘urur, faxr, vatanparvarlikni berishini kuzataman. Bu ruh, sha’n, vatanparvarlik esa yuksalib borishiga shubha yo‘q.

SO‘Z ERKINLIGI XUSUSIDA uch og‘iz erkin so‘z



Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Ha, o‘sha payti xalqni kuldirgan asosiy mavzu, aslida, xalqning o‘zi his qilgan og‘riq edi. Bugun esa qiziqchi ko‘targan mavzularning barchasi, deylik, paxtaga chiqib majburiy mehnat qiladigan o‘quvchi va o‘qituvchilar, o‘zboshimcha traktorchilar, sport va ta’limdagi tanish-bilishchilik, ko‘zbo‘yamachilik, tor doira uchungina amalda bo‘lgan so‘z erkinligi va boshqa ko‘plab muammolar o‘z yechimini topdi. Tabiiyki, undan keyin tug‘ilib voyaga yetgan avlod o‘z huquqi, o‘z erkini talab qilolmay, etagini olib qor qoplagan paxta egatiga kirib ketishni tasavvuriga ham sig‘dirolmagani uchun qiziqchining hazillariga miriqib kulolmaydi. Bundan keyin ham kulolmasin, axir maqsadimiz shu edi-ku — kechagi yaralar bitib, chandig‘i ko‘rinmay ketsin.

1. Bosh qonun darajasidagi talab

Muayyan jamiyat yillar davomida so‘z erkinligi, fikr erkinligi, inson farovonligiga ega bo‘lib yashasa, keyinchalik mana shu erkinliklarsiz hayotini tasavvur qila olmaydigan butun boshli avlod paydo bo‘ladi.

So‘z va amalning birligi ham insoniylikning ajralmas tarkibiy qismidir. Kecha so‘zning haddan ziyod jozibadorligi hamda amalning yo‘qligi, so‘z va amal orasidagi yuhoday huvillab yotgan dasht zamonamizning katta fojiasi edi, bugun shu dashtni gulistonga aylantirishga bel bog‘laganmiz.

Kecha erkin matbuotning nomigina qolib, har bir soha bo‘yicha alohida muqobil axborot paydo bo‘lgandi. Bu axborot xolis insonlar tomonidan qilinmadi, natijada u yoki bu yangilikning berilishidan manfaatdor qatlam bu ishni o‘z zimmasiga oldi. Ushbu yolg‘on hisobotlar shaklida ham, joylardagi rahbarlarning “cho‘ntak jurnalistlari” yordamida ham amalga oshirildi. Ko‘zbo‘yamachilik, yo‘q yutuqlarni ko‘rsatishga urinish, ayblarni xaspo‘shlash avj oldi. “Yuqoridagilar” oldida topshiriqlar bajarilayotgani, xalqning rozi ekani haqida turli illyuziyalar paydo bo‘ldi. Qarorlar va qonunlar chiqarishda xalqning kayfiyati, istaklari, ehtiyojlari aks etmaslik holatlari ko‘paydi. O‘z navbatida, xalq ham yuqorida o‘z istaklari, ehtiyojlarini ko‘rmagach, o‘rtada katta jarlik hosil bo‘ldi. Rahbarlar xalq oldidagi mas’uliyatini unutganidek, odamlar ham davlat oldidagi mas’uliyatni unuta boshlagan edi.

Bugun-chi? Bugun chuqur surishtiruvlar olib borayotgan jurnalistlar faoliyatiga kimdir qasddan aralashsa, javobgarlikka sabab bo‘luvchi Konstitutsiya darajasidagi talabni qabul qilmay iloji yo‘q. Bugungi so‘z erkinligini kim yaratdi, davlatmi yoki xalq? Menimcha, birgalikda yaratildi. Jamiyat shu narsasiz yashab bo‘lmasligini, so‘z va matbuot erkin bo‘lmasa, turmush tarzimiz sira yaxshilanmasligini his qilib, so‘z erkinligiga ehtiyoj sezdi.

So‘z erkinligi, tanlov huquqi ham bir mas’uliyat ekanini tushundi. Insonning u yoki bu gapni gapirish, u yoki bu fikrdan birini tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishi unda mas’uliyat tuyg‘usini paydo qiladi. Aynan mas’uliyat bor joyda yangi g‘oyalar tug‘iladi, turg‘unlik kayfiyatidan chiqib ketiladi.

2. So‘z erkinligi fikr erkinligidan boshlanadi

Davlat deb ataluvchi ijtimoiy va siyosiy hodisa odam tabiati hamda materiya bilan tutashib ketgan siyosiy institut ekanini inobatga olsak, zo‘ravonlikka asoslangan eskicha ma’muriy buyruqbozlik tizimi qoldiqlari nihoyat barham topish arafasida turibdi, ko‘ppartiyaviylik, g‘oya va fikrlar xilma-xilligi odatiy holga aylanib bormoqda.

Avvalgi tahriridan farqli o‘laroq, Konstitutsiyamizning yangilangan ko‘rinishi asosiy g‘oyasi ham shaxs huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini, inson sha’ni va qadr-qimmatini ta’minlashga qaratildi.

Shuning o‘zi inson qadriga hurmat ifodasi bo‘ldi. Shuning o‘zi mamlakatning har bir fuqarosi uchun tinch va xavfsiz hayot, fundamental huquq hamda erkinliklar, malakali tibbiy xizmat, sifatli ta’lim, kuchli va manzilli ijtimoiy himoya hamda sog‘lom ekologik muhit ta’minlanishini, munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilmaning bosqichma-bosqich yaratilishini anglatdi.

Masalan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga egaligi belgilandi. Shuningdek, yozishmalar, telefon so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa ma’lumotlar sir saqlanishi, shaxsga doir ma’lumotlar himoya qilinishi huquqiga egaligi ham Konstitutsiya darajasida belgilab qo‘yildi.

E’tiborlisi, shaxsning o‘zi haqida noto‘g‘ri to‘plangan ma’lumotlarning tuzatilishi yoki qonunga xilof ravishda to‘plangan ma’lumotlarning yo‘q qilinishini talab etish huquqi ham o‘z ifodasini topdi. Sababi, axboriy muhitning rivojlanishi va u hayotimizni tobora kengroq o‘rab olishi bilan shaxsga doir ma’lumotlarning ham ommaga sizdirilishi, oshkor bo‘lishi ehtimoli kuchaydi. Konstitutsiya esa insonlarni ana shunday shaxsiy hayotga tajovuzdan himoya qiladi.

Bosh qonunimizga har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi, istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga egaligi belgilanishi bilan birga davlat internet tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoit yaratishi alohida band sifatida kiritildi. Bunda axborotni cheklash faqat qonunga muvofiq amalga oshirilishi demokratik norma sifatida belgilangan.

Axborot vositalari orqali xabarlar tarqatish va qabul qilish hayotimizning ajralmas qismidir. Bugun internet nashrlar gurkirab borayotgan bir davrda OAV rivoji va hayotiy islohotlar bilan yangi normalarga ehtiyoj paydo bo‘ldi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada OAV erkinligi va ular qonunga muvofiq ishlashi hamda senzuraga yo‘l qo‘-yilmasligi haqidagi mavjud normaga qo‘shimcha band sifatida aniq qilib davlat ommaviy axborot vositalari faoliyati erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi deb belgilangani demokratik tamoyillar kuchayganini ko‘rsatdi.

Ochig‘ini aytganda, OAV faoliyatiga ayrim aralashuv va to‘sqinlik qilishlar ham yuz berdi. Shulardan kelib chiqib, takliflar asosida Konstitutsiyada senzuraga yo‘l qo‘yilmasligi bilan birga ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘lishi mustahkamlab qo‘yildi. Konstitutsiyaning avvalgi tahririda ham senzuraga yo‘l qo‘yilmasligi bo‘yicha modda bor edi. Ammo har doim ham amaldagi isbotini ko‘rmagandik.

Qonuniy asoslar, huquqiy kafolatlar yetishmagan yoki amal qilmagan joyda so‘z qudratga ega bo‘lmay qoladi. Shu jihatdan olib qaraganda, soha vakillari uchun so‘zning qonuniy asoslari muhimroq. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ana shu holat bilan bog‘liq vaziyatlarda javobgarlik qat’iy belgilanganining boisi ham shunda. Ya’ni senzuraga yo‘l qo‘yilmasligi talabi qonuniy nazoratga olinsagina, jurnalistlar chin ma’noda emin-erkin ishlaydi.

3. Siyosiy fazilat

So‘z erkinligiga chegara kerakmi? Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin: so‘z erkinligi taqdim etadigan chegara makoni shunchalik kengki, allaqanday ulkan ish qilish uchun undan chiqishingiz shart emas, unga ehtiyoj sezmaysiz. Ammo chegaralar adolatli o‘rnatilmasa, so‘z erkinligi boshqa qadriyatlar bilan to‘qnashganda maqomi mujmal belgilansa, u o‘ziga qarshi ishlay boshlaydi — erkinlik qadriyati yo‘qoladi.

Erkinlik qadriyati yo‘qolsa, moyil qalblar shuhratparastlikka to‘ladi va hamma ta’magirlikni yuqtiradi. Istak predmetlari o‘zgaradi: ilgari sevganlarini endi sevmay qolishadi. Ilgari qonunlarga ko‘ra erkinlik bor edi, endi esa noqonuniy erkinlikni istashadi. Qoida bo‘lgan narsa endi qattiqqo‘llik bo‘lib tuyula boshlaydi, intizom bo‘lgan narsa cheklovga aylanadi, ehtiyotkorlikni qo‘rqoqlik, mo‘tadillikni ochko‘zlik deb atashadi. Shu sababdan bizga siyosiy tarbiya, fazilat kerak.

Hech bir boshqaruv shakli respublika boshqaruvi kabi tarbiya ko‘magiga ehtiyoj sezmaydi. Despotik davlatlarning prinsipi bo‘lmish qo‘rquv tahdid va jazolar ta’sirida o‘z-o‘zidan tug‘ilaveradi, monarxiyalardagi sharaf insonning lahzalik kechinmalarida o‘z ifodasini topadi va bir vaqtning o‘zida sharaf insonlarning tayanchi bo‘lib ham xizmat qiladi. Lekin biz kabi demokratik davlatlarda siyosiy fazilat muhim. Siyosiy fazilat fidoyilik, jonbozlikdir va bu fazilatni tarbiyalash doim qiyin kechgan.

Jamiyat manfaatini shaxsiy hayotdan mudom ustun qo‘yishni talab qiladigan bu muhabbat barcha xususiy fazilatlar asosida yotadi va u biz o‘ylagandan ancha a’lo fazilatdir.

Xoh u jurnalist bo‘lsin, xoh muallim, fidoyilik, haq-huquqidan xabardor, siyosiy, ijtimoiy, axboriy savodxon bo‘lsa, bu biz va biz kabi davlatlarda alohida kuch kasb etadi. Faqat mana shunday odamlar, mana shunday jamiyat bilan har neni o‘zgartirish mumkin. Shundagina davlat boshqaruvi har bir fuqaroga ishonib topshiriladi.

Qonunlarni saqlab qolish uchun ularga muhabbatli bo‘lish kerak. Biz hech qachon monarxiyani sevmaydigan hukmdor yoki despotizmni yomon ko‘radigan despot haqida eshitmaganmiz. Binobarin, demokratiyaga asoslangan mamlakatimizda demokratiyaga muhabbatni qaror toptirish lozim, aynan shu tarbiya bilan barcha insonlar emlanishi kerak.

Faylasuf va huquqshunos Sharl Monteskye aytmoqchi, bolalarga vatanga muhabbat tuyg‘usini singdirishning eng to‘g‘ri yo‘li vatan muhabbatining otalarda bo‘lishidir.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Konstitutsiya — mening taqdirimda

**To‘g‘risi, yolg‘iz qolib, yashashga qiziqishim so‘nib borayotgandi. O‘zimni hech kimga keraksiz, himoyasizdek his etgan kunlarim bo‘lgan. Bundan juda o‘ksinardim. Oyoq-qo‘ldan kuch-quvvat, ko‘zdan nur qochgan damda yolg‘izlanib qolish qiyin ekan.
Ijtimoiy xodim assistenti Hanifaxon Ismoilova qizimdek mehribon, samimiy, qo‘l-oyog‘i chaqqon, shirinsuxan. Haftaning besh kunida ikki soat mobaynida uy yumushlari va boshqa ijtimoiy xizmatlarda menga ko‘p jihatdan yordam berib, ko‘nglimni ko‘taradi, qo‘llab-quvvatlab, hayotga ishonchimni oshiryapti.**

MEHRLI YURTDA MEHR TOPGANLAR

Mehrli yurtda mehribon insonlar qalb harorati va samimiyatini hamisha his qilib yashayman. Yolg‘izlanib qolganim yo‘q. Har kuni saxovatli kishilar ko‘ngil so‘rab, holimdan xabar oladi. Sog‘lig‘im, yashash tarzim bilan bog‘liq kamchiliklar imkon qadar bartaraf etilyapti.



Bag‘dod tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi xulosasiga ko‘ra, menga o‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxs sifatida ijtimoiy xodim assistenti biriktirilgan. Kam ta’minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila sifatida olti oylik moddiy yordam tayinlandi.

To‘g‘risi, yolg‘iz qolib, yashashga qiziqishim so‘nib borayotgandi. O‘zimni hech kimga keraksiz, himoyasizdek his etgan kunlarim bo‘lgan. Bundan juda o‘ksinardim. Oyoq-qo‘ldan kuch-quvvat, ko‘zdan nur qochgan damda yolg‘izlanib qolish qiyin ekan.

Ijtimoiy xodim assistenti Hanifaxon Ismoilova qizimdek mehribon, samimiy, qo‘l-oyog‘i chaqqon, shirinsuxan. Haftaning besh kunida ikki soat mobaynida uy yumushlari va boshqa ijtimoiy xizmatlarda menga ko‘p jihatdan yordam berib, ko‘nglimni ko‘taradi, qo‘llab-quvvatlab, hayotga ishonchimni oshiryapti.

Odamlar turmush tarzida juda katta o‘zgarishlar bo‘lyapti. Qishloqlarga suv keldi, yo‘llar asfaltlandi, chirog‘imiz o‘chmay qo‘ydi, dasturxonimiz to‘kin, yurtimiz tinch. Mana shunday kunlarda yashashni orzu qilardik. Ko‘rsatganiga, yetkazganiga shukr. Samimiy yordam, qo‘llab-quvvatlovlardan kuch-quvvat olyapmiz.

“Qahat” oilaviy shifoxona punkti xodimlari sog‘lig‘imdan tez-tez xabar olib, bepul tibbiy yordam ko‘rsatib kelyapti. Bu mamlakatimizda inson qadr-qimmati har narsadan ustun ekanining amaliy ko‘rinishi. Qayerda, qanday sharoitda bo‘lsam-da, hamisha davlat va qonun himoyasida ekanimni his qilib yashayman, bundan faxrlanaman.

Diloromxon MAHMUDOVA
Farg‘ona viloyati Bag‘dod tumani



Mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir.
Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to‘laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasidan.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Matonat timsoli

SABRNING ISMI

BBC 2024-YILGI DUNYONING ENG RUHLANTIRUVCHI VA KATTA TA’SIRGA EGA 100 AYOLI RO‘YXATIGA KIRITGAN DENOVLIK TIKUVCHI, TADBIRKOR DILOROM YO‘LDOSHEVA HAQIDA OCHERK

U shoshib gapirar, toza, samimiy hissiyotlarini ifodalay olmayotganidan o‘ng‘aysizlanar, gapga yo‘qman-da, uka, deb bot-bot takrorlar, menga esa, ochig‘ini aytganda, xuddi shunday munosabat ma’qul edi. Chunki uning har gapidan, har tovushidan men anchadan beri esimdan chiqarib qo‘ygan tuproq isi, hadsiz osmon rangi, men hech qachon nomini bilolmaydigan qushlar sayrog‘i, umuman, hammasini bir butun qilib yig‘ish imkoni bo‘lsa-da, bitta nom berib bo‘lmaydigan xotirami, yoqimli allanarsa ajralib chiqardi. Bu ilgari quloqlarim sira eshitmagan sabrning xotirjam ovozi edimi yoki so‘zning to‘rtburchak shakliga sig‘ishni istamagan matonatning chuqur tin olishimidi, bilolmadim. Uni tinglash asnosida kompyuterdagi bugun unga doir chiqqan o‘nlab maqolalar, yangiliklarga o‘g‘rincha ko‘z yugurtirdim:



“BBC 2024-yilgi dunyoning eng ruhlantiruvchi va katta ta’sirga ega 100 ayoli ro‘yxatini e’lon qildi. Ular orasida Nobel mukofoti sovrindori, zo‘ravonlikka qarshi faol, olimpiyachilar va denovlik tikuvchi, tadbirkor Dilorom Yo‘ldosheva ham bor. 2022-yil hosil yig‘imi paytida yuz bergan baxtsiz hodisa oqibatida ikkala oyog‘idan ayrilgan. Biroq bu fojia uni tushkunlikka tushirmadi. U yangi ko‘nikmalarni o‘rganish va yosh o‘zbek ayollariga daromad topishda yordam berishni istadi. Shu sababli Dilorom tikuvchilik korxonasini ochishga qaror qildi. Tadbirkorlik va resurslarni boshqarish asoslarini o‘rganib, 40 dan ortiq ayolga tikuvchilik hunarini o‘rgatdi. Bir necha oyda korxonasi sezilarli darajada kengaydi. Yo‘ldosheva ishchilar va maktab o‘quvchilari uchun forma tikish bo‘yicha shartnomalar imzoladi. O‘shandan buyon uning biznesi nafaqat o‘zi, balki o‘nlab boshqa ayollar uchun ham daromad manbaiga aylandi”.

Tasavvurimdagi Dilorom opani yo‘qotib qo‘ymaslik uchun fikrimni bir joyga yig‘ishga urinaman. Mana u, tutlar soyasida hasharchilarga suv olib ketyapti. Tush vaqti o‘tib ketayotgan bo‘lsa ham negadir shoshmasdi. Qani endi yo‘l yanayam uzoqroq bo‘lsa-yu, bu tuproq ko‘chada ko‘proq yursam deb o‘ylardi. Ko‘chadagi o‘z yumushlariyu tashvishlari bilan band odamlar, orzu va xayollarini tepkilab o‘ynab yurgan bolalar, darvozalari oldida hayotning yorqin xulosalari va saboqlari bitilgan sahifalarday bujmaygan aft-angorlari, musibat-u hasratdan bukilgan tanalarini oftobda toblab o‘tirgan chollarga to‘xtamasdan, bir qur nazar tashlab ketardi. U shoshmasdi, ammo oyoqlari yurishdan to‘xtashni istamasdi.

— Besh soniyadan keyin nima bo‘lishini hech kim aytolmaydi. O‘shanda odatdagidek yurgandirman, balki bu mudhish hodisa sodir bo‘lganidan keyin men o‘zim uning ta’sirini oshirib yubordimmi, bilmayman, ammo boshqacharoq yurganimni eslayman. Oyoq tortmayotgandi emas, nima desam ekan, chanqoq odam shoshmasdan, dastlab piyolaga quyib, oz-ozdan ichmaydi-ku, idishi bilan ko‘tarib, qonib ichadi. Xuddi shunday... o‘sha payt ko‘proq yurishni xohlagandekman, nazarimda... Xullas, tush vaqti. Hasharchilarga suvni berib, kombaynni o‘chirmanglar, ovqatni yevolinglar, o‘rilganlarini o‘zim tashlab turaman, dedim. Chang yuqmasin deb uzun xalat kiygan edim. Bir quchoq olib kombaynga tashladim-u, ortimga burilishim bilan ilindi-da o‘lgur xalat. Bir marta jon holatda oyog‘imni tortganimni eslayman, shu bilan ko‘zimni shifoxonada ochdim, — deydi Dilorom Yo‘ldosheva. — Keyin aytishdiki, operatsiya to‘rt yarim soat davom etibdi, bir oyog‘im qolgan, lekin gangrena bo‘lib ketmasligi uchun uni ham olib tashlashgan ekan… Bu voqeani eslasam, yuragim zirqiraydi, lekin nolimayman, Xudoga shirk keltirmayman. Sizgacha o‘nlab odamga shu hodisani tag‘in boshdan o‘tkazgandek qilib aytib berdim, bugun kuni bo‘yi sarflashim kerak bo‘lgan ruhiy quvvatim tugadi, chamamda.

> **Mana, ikki yil o‘tdi. Bugun shogird qizlarim bor, kichkina bo‘lsa-da, tadbirkorlik ish o‘rni yaratishga harakat qildim. Shu ishni boshlayotganimda, daromadni emas, faqat bir narsani — chekka qishloqdagi boshqa ayollar, qizlar biydek dalada ketmon chopmasin, jaziramada falon so‘m topaman deb sog‘lig‘ini yo‘qotmasin, ham salqin, ham qo‘l kir bo‘lmaydigan joylarda ishlasin, ular ham bir kun mening ahvolimga tushib qolmasin deb ich-ichimdan xohlaganman.**



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Oyoqlarimdan ajralganimdan so‘ng, qanday aytsam ekan, tushkunlikka tushdim desam, to‘liq ochib berolmagan bo‘laman. Og‘ir kechdi, nihoyatda og‘ir… Yarim tunda, mehribon ovsinimning ko‘zi ilingan payti hammasiga qo‘l siltab, ketvoraman deb turishga chog‘lanaman-u, oyoqlarim endi yo‘qligi esimga tushib qoladi… Dastlab qaysi devorga boshingizni urishni bilmay gangib qolasiz, keyin jazavangiz pasayadi, o‘rnini tumanli, etni junjiktiruvchi salqin kayfiyat egallab oladi — u jazavadan battar. Har kech ta’qib etadi, taslim bo‘lishga chorlaydi…

Suhbatdoshimning holati asta-sekinlik bilan menga ko‘char ekan, uning xo‘rsinig‘i men his qila oladigan, ko‘ra oladigan tasvirlarda namoyon bo‘la boshlaydi: yo‘l dala uzra oltin kalavadek cho‘zilgan — havo dim, tevarak jizg‘anak bo‘lib kuyib yotardi, yulduzlar lip-lip etib so‘nardi — havodan kuyindi hidi kelar, qoq o‘rtasidan yolg‘izoyoq yo‘l kesib o‘tgan dala tutab yotardi. Yo‘lda yalangoyoq ketayotgan barvasta gavdali odam tutunning achchig‘idan o‘pkasi uzilayotgandek tez-tez yo‘talardi. Uning ikki qo‘lida vahmkor xalat tebranib borar, zarhal tugmalari so‘nayotgan yulduz shu’lasida yarqirab ketardi. Xalatda kimdir jim, hatto ozgina jilmayish bilan atrofni tomosha qilib borardi — u Dilorom edi. Kech tushganiga ancha bo‘lganiga qaramay, tuproq issiq, barvasta odam hansirab-hansirab, bazo‘r ketib borar — u yig‘lardi...

— Ta’sirchan bo‘lib qolgandim. Har narsa ko‘nglimga og‘ir botadigan paytlar edi. Shifoxonadan chiqib, uyga kelganman, hech ishga hafsala yo‘q, shiftga tikilib yotaman — o‘ylayman, o‘ylaganim sari ichim qorong‘iga to‘yinayotganini his qilaman. Orada menga mahalladanmi yoki tumandanmi kelib, birga rasmga tushib, aravacha sovg‘a qilib ketishdi. Oyoqlarim qaytib kelgandek xursand edim. Endi ozgina qiynalib bo‘lsa-da, o‘zim harakatlana olaman, hovlini, havoni miriqib tomosha qilolaman, degandim. Ammo o‘n-o‘n besh kun o‘tar-o‘tmas, yana yoshroq kimdir keldi-da, aslida, mahalla teparog‘idagi momoga edi bu aravacha, sizga adashib berib yuborishgan, xafa bo‘lmang, olib ketmasam bo‘lmaydi, dedi. Ikkinchi bor oyoqlardan ajralgandek og‘riq his qildim. Tag‘in siqilib qoldim.

Dilorom opaning barcha gaplarini aniq-tiniq eshityapman-u, xayolim men idora eta olmaydigan qudrat bilan kulrang bo‘yoqlarda opaning horg‘in kayfiyatidan xona tiklar, uni shu xona ichiga qamar, to bardosh yetishiga ishonch hosil qilgunga qadar sharpa bilan yolg‘iz qoldirardi. Sharpa esa bu uzlat va osoyishtalikdan quvib chiqarmoqchiday edi. Bu makkor tushkunlikning xizmatkori har safar xonasida vahima chirog‘ini yoqqanda sharpa yana ham vahshiy, haybatli, betakror qo‘rquv manbai bo‘lib tuyular, Dilorom esa uni xonadan haydab chiqarish uchun urinardi. Uni ko‘rganlar nega bunchalar ozib ketding, deya so‘rar, biroq ularga sharpa haqida hech narsa deya olmasdi, ammo rostdan ham go‘yo qurib-qovjirashga yuz tutgan daraxtdek kunma-kun ozib-to‘zib borar, fikri parokanda, ichi bo‘shab qolgan, u yerdagi bo‘shliqni sharpa vahimasi-yu vasvasasi to‘ldirgandi…

— Yo‘q, yaqinlarimni ezadigan qaror qabul qilmadim, umuman, bu narsa haqida o‘ylamaganman ham. Bunga haqqim yo‘q edi. Farzandlarim, erim, men uchun ku-yib-pishayotganlar hurmati taslim bo‘lgim kelmadi, — deydi denovlik tikuvchi. — Menimcha, hayot uchun kurash odamda yashashga qiziqishni qaytadan uyg‘otadi. Qiziqish esa miltillab turgan umidni lov-lov yonuvchi ishonchga aylantirib beradi. Xullas, o‘tgan ish uchun afsuslanishni bas qilib, amalga oshadigan rejalarni pishita boshladim: dastlab mahalladan, ular baraka topishsin, tikuv mashinasi so‘radim, bir



og‘iz yo‘q demadi, berishdi. Ishga shu darajada sho‘ng‘ib ketdimki, aynan ish meni tushkunlik to‘riga xo‘rak bo‘lib qolmaslik uchun ermak, ulkan bahona bo‘ldi. Undan so‘ng subsidiya asosida zamonaviy tikuv mashinasini kreditga olib, yoniga qo‘shdim. Nima tikishimga keladigan bo‘lsak, qavilgan, paxtali choponlar, kelin ko‘ylaklar, bolalar kiyimchalari, xullas, qo‘limdan kelgan hamma narsani tikib ko‘raman, ishimdan zavq olaman… Ha, aytgancha, aytish esimdan chiqibdi, bu orada menga o‘zi yuradigan aravacha sovg‘a qilishdi. Rahbarlarga, eng quyi o‘rindan to davlatimiz rahbarigacha, mingdan-ming rahmat aytib qolaman. Mulozamat emas bu. Boshqa joylar haqida to‘liq tushunchaga egamasdirman, ammo ishonaman — bizdagi beminnat ko‘mak, o‘zbekona mehr-muruvvat boshqa yerda topilmaydi. Odam taftini odam oladi, degan oddiy gapning hikmatini shu holimda juda chuqur anglab yetdim, boriga shukr qilib, javlon urib mehnat qilishda davom etdim.

Qarashlarimni ijobiy tomonga o‘zgartirishim bilan ishim o‘ngidan kela boshladi, uyimga baraka qaytdi, xotirjamlikni his qila boshladim va bir narsani tushundim: siz qanday munosabatda bo‘lishingizga qarab, yuz berajak hodisaga hikmatli yoki mudhish sifat qo‘yilar ekan. Agar ko‘ngilni keng qilib, e’tiqodni mustahkam tutsangiz, o‘xshamagan yumushdan ham yaxshi nimadir kelaverishiga ishondim. Hatto men tanimaydigan odamlar necha yillardan beri haj ziyorati uchun yiqqan pulini shu yosh kelinga protez oyoq olib beraylik, savobi hajnikidan kam bo‘lmas deb oldimga taklif bilan kelganda yig‘lab yuborganman. Yaxshi odamlar atrofimda ko‘p ekanidan quvonganman, chunki ulardan har tong quvvat olaman — bu quvvat o‘rnini hech narsa bosolmaydi.

Mana, ikki yil o‘tdi. Bugun shogird qizlarim bor, kichkina bo‘lsa-da, tadbirkorlik ish o‘rni yaratishga harakat qildim. Shu ishni boshlayotganimda, daromadni emas, faqat bir narsani — chekka qishloqdagi boshqa ayollar, qizlar biydek dalada ketmon chopmasin, jaziramada falon so‘m topaman deb sog‘lig‘ini yo‘qotmasin, ham salqin, ham qo‘l kir bo‘lmaydigan joylarda ishlasin, ular ham bir kun mening ahvolimga tushib qolmasin deb ich-ichimdan xohlaganman. Amallar niyatga bog‘liq. O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tdim, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ish boshladim, subsidiyadan foydalanib, tikuvchilik uchun xonani ta’mirlab ish boshladim. Natijasini men aytmasam ham internet yoki gazetadan o‘qib bilgan bo‘lsangiz kerak.

To‘g‘risi, BBCdagi ro‘yxatdan joy olgan Diloromdan ko‘ra meni bugungi sabr qilishga o‘rgangan, har nega qanoat qila oladigan, e’tiqodi va ishonchini mustahkam tuta biladigan, nainki ertangi, balki bugungi kun uchun ham umid topa oladigan, ayni damda baxtli Dilorom ko‘proq quvontiradi.

Baxtli Dilorom… Ayol tag‘in tasavvurimda, faqat bu safar yosh qizaloq ko‘rinishida jonlanadi. Sharpani haydash uchun u olis bolaligidan beri haligacha tark etmagan odatiga ko‘ra, devorga ulkan qushning suratini chiza boshlaydi. U bu surat bilan o‘zining hali tirikligini va yashayotganini, o‘zini hali ham hayrat va shavq tark etmaganini sharpaga ko‘rsatib qo‘ymoqchi edi. Chizib bo‘lguncha ulkan toshga ulkan qush aksini o‘yib solgan haykaltaroshdek horib qoldi. Lekin bu horg‘inlik lazzatli va farog‘atli edi. Qushning qanotlari parvozdagiday keng yoyilgan, ko‘zlarida qat’iyat va jasorat aks etardi, u shu uchishida butun Yer yuzini ko‘tarib uchadigan shahdi bor edi go‘yo, uni parvoz va erkidan boshqa hech narsa qiziqtirmas, u hamma narsadan yuksak va baland edi. Uni hech kim Yer yuziga tortib tushirolmas, erkidan ayro qilolmasdi, yosh qizaloq — Dilorom qushga qo‘shilib, osmonlarda uchib yurardi. Yuksaklikda unga hech kim daxl qilolmas, vahm, qo‘rquv, turmush tashvishlari — hammasi pastda qolib ketgan, u o‘z orzularining qushiga aylanib qolganidan baxtiyor edi…

Aziz BAXTIYOR,
jurnalist

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 4252.
39932 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bashorat Yunusova
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizaynerlar: Xurshid Abdullayev, Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 21:05 Topshirildi — 23:10

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05